

**Journal of Social Research in Uzbekistan****JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:  
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**KHADICHA SULAYMONOVA – THE FIRST UZBEKISTAN LEGAL SCIENTIST**

**Benazir Khomidova**

*Historian, Educator*

*teacher 268*

*State and citizenship society*

*institutes management state servant*

*Tashkent, Uzbekistan*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** jurisprudence, crime rights, women rights.

**Received:** 23.06.25

**Accepted:** 25.06.25

**Published:** 27.06.25

**Abstract:** Khadija Suleymanova in the 20th century jurisprudence in the field activity committed a crime right and justice system for large contribution added, this. The first Uzbek in the field from women This is one of them. article his/her science on the way tenacious labors about.

**XADICHA SULAYMONOVA – ILK O'ZBEK HUQUQSHUNOS OLIMA**

**Benazir Xomidova**

*Tarixchi, Pedagog*

*268-maktab o'qituvchisi*

*Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi davlat hizmatchisi*

*Toshkent, O'zbekiston*

**МАҚОЛА HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** huquqshunoslik , jinoyat huquqi , xotin-qizlar huquqlari.

**Annotatsiya:** Xadicha Sulaymonova XX asrda huquqshunoslik sohasida faoliyat yuritgan , jinoyat huquqi va adliya tizimi uchun yirik hissa qo'shgan , bu sohadagi ilk o'zbek ayollaridan biridir . Ushbu maqola uning ilm yo'lidagi matonatli mehnatlari haqida.

**ХАДИЧА СУЛАЙМОНОВА – ПЕРВЫЙ УЗБЕКИСТАНСКИЙ УЧЕНЫЙ-ПРАВОВИК**

**Беназир Хомидова**

*Историк, педагог*

*учитель 268*

*Состояние и гражданство общество институты управление состояние слуга*

*Ташкент, Узбекистан*

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** юриспруденция, преступление права, женщины права.

**Аннотация:** Хадиджа Сулейманова в 20 веке юриспруденция в поле активность совершил преступление верно и справедливость система для большой вклад добавил, это Первый узбек в поле от женщин. Это один из них. статья его/ее наука в пути цепкий труды о.

O'zbek xalqi azal-azaldan ilm-fanga, taraqqiyotga o'z hissasini qo'shib kelgan buyuk zotlarni tarbiyalab yetishtirib yurgan. Qanchadan-qancha buyuk ilm -u toliblar, mashhur kashfiyotchilar ham aynan bizning yurtning farzandlari bo'lgani bilan har qancha faxrlansak arziyi.

O'zbek huquqshunosligi ham o'z rivojlanish yo'liga ega. Buyuk sohibqiron Amir Temur davrida ham davlatning asosiy tamoyillaridan biri bu adolatni ta'minlash bo'lganligi barchamizga ma'lum. Uning "Kuch – adolatdadir" degan shiori o'sha davrda ham tenglik, odillik ustun bo'lganligining yaqqol namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. U o'z o'gitlarida ta'kidlashicha "Sultanatim qonun-qoidalarini islom dini va kishilarning xayrlisi hazrati Muhammadning shariatiga bog'lab, izzatu hurmatlash vojib bo'lgan onhazratning avlodi va sahabalariga muhabbat bildirgan xolda ularning mustahkamladim. Sultanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, sultanatim ishlariga aralashib, ziyon yuborishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi". Uning "davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur" degan gaplari esa haq yo'lida qilgan harakatlarini ifodalaydi.

Xonliklar hozir ham madrasalarda fiqh (islom huquqshunosligi) faniga tegishli e'tibor berilgan. Huquqshunoslik sohasining o'tgan asrdagi rivojiga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekiston SSR ham ham bir qancha huquqshunoslар XX asrda huquqshunoslik sohasiga o'zlarining munosib hissasini qo'shishdi. Jumladan, Turkiston taraqqiyarvarlaridan biri, Toshkentning "Qoryog'di" mahallasidan bo'lgan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev Rossiyada huquqshunoslik sohasi bo'yicha ta'lif olib birinchi o'zbek advokati bo'lgan. U jadidlarning "Sho'roi Islomiya" jamiyatiga rahbarlik qilganligi, faol jadidchilik harakatlarini birlashma asosida oshirganligi va mustaqil Turkiston Muxtoriyatning hukumati bilan faoliyat olib borganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Xadicha Sulaymonova 1913-yil 3-iyulda tug'ilgan. To'qqiz yillik maktab tugatganidan so'ng, Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquqi tashkil etish huquq fakultetiga o'qishga kirdi. 1935-yilda o'qishini tamomlab, Oliy sud a'zoligiga ta'yinlandi va dunyoda bu maqomga erishgan birinchi ayol sudya bo'ldi. U yerda 3 yil faoliyat yuritib, 1938- yil Moskva yuridik tashkil etish sovet jinoyat huquqi yo'nalishiga aspirant bo'lib o'qishga kirdi. Bu davrda ayol-qizlarning o'qishi , ilm olishiga unchalik ham e'tibor berilmas edi . XX asr 20- yillarda ayollar erkinligi, paranji uchun jarayonlari avj olgan va bu haqida ayollarning juda ko'pchiligi o'z yaqinlari tarafidan qurban qilinar edi. Mana shunday og'ir davrida ayollarning ta'lif olishi, ayniqsa, huquqshunoslik shaxs faoliyat

yuritishi bu juda katta jasorat edi. Xadicha Sulaymonova ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib bir qator huquqiy mavzularda izlanishlar olib borgan. Ularning namunasi sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- O'zbekistonda sovet jinoyat huquqining paydo bo'lishi va rivojlanishi;
- O'zbekiston Sovet davlati va huquqi tarixi;
- O'zbekiston xalq xo'jaligini tartibga solish solishtirish huquqiy masalalari;
- Kommunizmning keng ko'lamli qurilishi davridagi O'zbekiston Sovet huquqi;

- Turkiston ASSRda sovet sudining tashkil topishi va rivojlanishi (1917 - 1924) kabi kitoblar va O'zbekiston SSRning yangi Jinoyat kodeksi, O'zbekiston SSR qonuni hujjatlarni kodlashtirishning asosiy masalalari to'g'risidagi va boshqa bir qator shu sohaga oid maqolalar muallifidir. Uning rahbarligida jinoyat huquqi bo'yicha o'zbek tilida ilk darsliklar tayyorlangan. Uning yuksak xususiyatlari egaligi, shijoatli va ilmga chanqoqligi bugun o'zbek qizlariga o'rnak bo'ladi. Ilmiy ishlari asosan jinoyat huquqi, O'zbekistonda huquqshunoslik faning vujudga kelishi va rivojlanishi, xotin-qizlar huquqlariga bag'ishlangan. U Moskvada bo'lib o'tgan, " xalq dushmani" kabi otilgan A.Ikromov va F.Xo'jayevlarni oqlash ishlarida faol qatnashgan. Faoliyati uchun turli davrlarda Oliy sud raisi, Adliya vaziri, yuridik instituti rektori vazifalarida ishlagan. Ko'plab davlatlarda ilmiy ma'ruzalar bilan ishtirok etgan. Respublika sud-ekspertiza markazi ochilishiga tashabbuskorlik qilgan. Muxtasar qilib aytganda, Xadicha Sulaymonovaning hayot yo'lini o'rganish va targ'ib qilish yosh huquqshunoslardan uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Zero, uning XX asrdagi faoliyati, ushbu og'ir damlarda ham xotin-qizlar huquqlari, jinoyatchi olam, jinoyatchilikka qarshi kurash va uning ilmiy asoslarini yaratishda qilgan harakatlari tahsinga sazovordir.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Xadicha Sulaymonova – huquqshushos, olim, davlat arbobi. M.Hakimov, G'. Ahmedov, A. Saidov. T.: O'zbekiston, 1993-y. -151 b.
2. Amir Temur o'gitlari. (ziyouz.com)
3. Temur tuzuklari. – T.: "O'zbekiston ", 2013. -184 b.
4. O'zbekiston tarixi. 9-sinf uchun darslik. S. Tillaboyev, A. Zamonov. – T.: Sharq, 2019-y, - 158 b.